





2
0
2
4

№ 4



Muhandislik va Iqtisodiyot



ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal



Muhandislik va Iqtisodiyot

Elektron nashr,
502 sahifa, noyabr, 2024-yil.

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Muhandislik va Iqtisodiyot

Elektron nashr,
502 sahifa, noyabr, 2024-yil.

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

- Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
- Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
- Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
- Toshkent davlat transport universiteti
- Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
- Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
- Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

O'zbekistonda korporativ qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish yo'llari	9
Xalikov Ulug'bek Rustamovich	
Tijorat banklarida majburiyatlar yuzaga kelishi va ularning nazariy asoslari.....	16
Sabirova Nozima Normat qizi	
Kichik biznes subyektlarini toifalarga ajratishda uning iqtisodiy barqarorlik holatini tahlil qilish masalalari.....	22
Akobirova Nodira Najmiddin qizi	
Tijorat banklari filiallari faoliyati samaradorligini baholashni takomillashtirish masalalari	28
Rajabov Behzod Mirshodovich	
Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirishda budjet tizimi prinsiplarining ahamiyati	37
Isaboyev Bekzod Nurmirezayevich	
Aylanma aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	43
Fayziyev Oybek Raximovich	
O'zbekistonda taqsimot jarayonlari samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish	48
Xajiev Baxtiyor Dushaboevich	
Перспективы развития электронных денег в узбекистане: опыт развивающихся стран и рекомендации	57
Ширинова Шохсанам Собир кизи	
"Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi" ning uslubiy asoslari bo'yicha qarashlar	65
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li	
O'zbekiston oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda davlat xaridlari strategiyalarining roli va samaradorligi	69
Turabov Sarvar Abdumalikovich	
Milliy iqtisodiyot rivojlanishida "yashil" moliyalashtirish dastaklari va vositalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	75
Xoliqov Sarvar Xayitboevich	
Transmission mexanizmi valyuta kanali va savdo balansi o'rtasidagi bog'liqlik	82
Absalamov Akram Tolliboyevich	
Sug'urta faoliyatida axborot jarayonlarini avtomatlashtirishning nazariy asoslari.....	94
Shakirov O'tkirbek Taxirovich	
Kapital bozorini rivojlantirishda qimmatli qog'ozlar bozorining roli va ahamiyati	100
Ibodullayev Abror Axrorovich	
Теоретические основы экологического менеджмента.....	106
Эгамбердиев Комрон	
O'zbekistonda hayot sug'urtasining hozirgi holati, uning tahlili va rivojlantirish istiqbollari.....	110
Hamroyeva Dilso'z Yahyoyevna	
Mintaqa iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari	117
Madraximov Kaxramon Egamberganovich	
Aholi omonat turlari va ularning jozibadorligini oshirish yo'llari.....	124
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	



Анализ и пути повышения конкурентоспособности медицинских организаций в Узбекистане.....	132
Исломбек Умиров	
O'zbekistonda urbanizatsiyaning yangi bosqichlari va shahar aholisining dinamikasi	139
Djumabaeva Shaira Xalillaevna	
Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qulay investitsion muhitdan samarali foydalanish yo'llari.....	146
Saribaeva Azadajan Baratbaevna	
Sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni yaxshilash bo'yicha chora tadbirlar.....	153
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
Investisiya muhiti jozibadorligini xalqaro tashkilotlarga institusional uyg'unlashtirish orqali oshirish imkoniyatlari	157
Umirzoqov Jasur Artiqboy o'g'li	
Tijorat banklarida foiz riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	165
Rashidov Abdulaziz Abdurasul o'g'li	
Iqtisodiy salohiyatni oshirishda transport-logistika tizimining o'rni	174
Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
Splayn modellarning gidrogeologik ma'lumotlarni tiklashdagi ahamiyati va ularning samaradorligini baholash.....	179
Zaynidinov H.N., Qobilov S.Sh.	
O'zbekistonda soliqlar islohotlarining samaradorligini ta'minlashning ustuvor vazifalari	190
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich	
Теоретические основы учёта лизинговых операций в узбекистане	195
Турсунов Улугбек Сативолдиевич	
O'zbekiston bank sohasini rivojlantirishda sun'iy intellektning o'rni.....	200
Mohira Mutalova	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq ijarani tan olishning o'ziga xos jihatlari	205
Xasanboyev Oxunjon Ximmatjon o'g'li	
Tijorat banklari moliyaviy boshqaruv tizimini tashkiliy mexanizmini takomillashtirish	210
Kadirov Lutfullo Xalimovich	
Mamlakatda kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish yo'llari	215
Sharipov Kuvondik Baxtiyorovich	
Turizmda mehmonxona biznesi tahlili va O'zbekistondagi rivojlanish istiqbollari.....	224
Ahmadjon Taniev	
Влияние устойчивых маркетинговых стратегий на рост фермерских хозяйств	231
Назарова Гулрух Умаржоновна	
Теоретические аспекты формирования и использования финансов домохозяйств	237
Рустам Фарманович Оманов	
Davlat boshqaruv tizimida raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlarning inson resurslariga ta'sirini statistik baholash	242
Xusanova Muxsina Kasimovna	
Korxonalar moliyaviy faoliyatiga kiruvchi hisob obyektlarining tasnifi va tavsifini takomillashtirishning ahamiyati	251
Umarova Sh.	
Aholi turmush darajasi va uni statistik baholashda uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlarning o'rni	258
Urazbaev Raxmatjon Otajanovich	



Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida asosiy faoliyat xarajatlarini budjetlashtirishning tashkiliy-uslubiy jihatlari.....	270
Urmanova Umida Xakimdjanoyna	
Tadbirkorlikni yanada rivojlantirish borasida tikuv-trikotaj sanoat mahsulotlarini yaimdagi ulushini oshirish masalalari.....	277
Maqsudov Abdusalom Nuraliyevich	
Современное управление процессами переработки сивушных масел в андижанском биохимическом заводе.....	282
Султанов Илдар Рафкатович	
Oqava suvlarni tozalash jarayoni nazariyasi va amaliyotining hozirgi holati va tahlili	290
Alibekova Mohida Ashurali qizi, Yusupov Azamat Alijonovich	
Samarqand viloyati xizmat ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik rivojlanishini ko'rsatkichlarini prognozlashtirish.....	297
Umirov Islombek Furkatovich, O'razaliyev Elyor Shuxratovich, Jaloliddinov Abubakirxon Rasuljon o'g'li, Mamatkulov Muxiddin Mansurovich	
Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish mexanizmi konsepsiyalarini ishlab chiqish dolzarbligi.....	307
Orifjonov Nodir G'oyibjon o'g'li, Ibragimov Isroil Usmanovich	
Iste'mol etikasi va iste'mol madaniyatining oziq-ovqat xavfsizligi tizimi barqarorligini ta'minlashdagi roli.....	313
Axmedov Akmal Axmedovich	
Yengil sanoat korxonalari faoliyati va unda boshqaruv mehnatining o'ziga xos hususiyatlari.....	323
Xolmirzaeva Qutlug' Habibaxonim Xamidxon qizi	
Namangan viloyati iqtisodiyotida transport logistikasini rivojlantirish va ekologik samaradorligini ta'minlash yo'llari	328
Tohirjon Olimjonovich Maxmudov	
Hududlar iqtisodiyotining rivojlanishida tadbirkorlikning tutgan o'rni.....	335
Nilufar G'ulomjonovna Maxmudova	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalalari	340
Xakimov Umarxon Rustamjon O'g'li	
Kichik sanoat zonalarida tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini oshirish masalalari.....	346
Esanaliev Otabek Yusupjonovich	
Sanoat korxonalarida mahalliy hom – ashyolardan foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish va mahsulot eksportini oshirish yo'llari	351
Ibragimov Isroil Usmanovich, Isroilov Xurshidbek Rustambek o'g'li	
Boshqaruvning transformasion rahbarlik uslubi va undan samarali foydalanish masalalari.....	357
Narimonov Nuriddin Narimon o'g'li	
Boshqaruvda zamonaviy uslublardan foydalanish orqali xodimlar faoliyati samaradorligini oshirish yo'nalishlari.	363
Ubaydullayev Lutfullo Xabibullayevich, Narimonov Nuriddin Narimon o'g'li	
Pillani qayta ishlash korxonalarida inqirozga qarshi boshqaruvning zaruriyati.....	370
Xojimatov Ravshanbek Rasuljonoich	
Kichik biznesda "yashil" iqtisodiyotning tutgan o'rni va ahamiyati	375
Alikulov Aziz Adilovch	
O'zbekistonda "Xalqchil IPO" istiqbollari.....	381
Kadirova Umida Ergashevna	



Tog'li hududlarda turizm biznesini rivojlantirish orqali mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilash	388
Alimov Abduvakil Komil o'g'li	
Investitsiya jarayonlarining asosiy tarkibiy qismlari va modellari	393
Tuxliyev Bozor Karimovich, Shaymardanov AbrorGafurovich, Kenjaeva Zamira Egamberdievna	
Tut ipak qurti pillalarini chuvishga tayyorlashning takomillashtirilgan texnologiyasi.....	399
Qodirov Ziyodulla Abdumuxtarovich, Zulfiorov Dostonbek Rustamjon o'g'li, Iminov Baxramali Ikromjanovich	
Трансформация человеческого капитала и системы образования на рынке труда	406
Магруппов Азиз Юлдашевич	
Xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish	418
Xamidova S.Y.	
Fermer xo'jaliklarida daromad va xarajatlar o'zgarishini er, mehnat va kapital xarajatlar bilan o'zaro bog'liqligining ekonometrik modellari	426
Qodirov Zohidjon Eralievich	
Tijorat banklarini biznes modellaring transformasiya qilish yo'nalishlari	433
Xudayarov Oybek Odilovich	
Искусственный интеллект в решении современных проблем менеджмента в Узбекистане.....	438
Эралиев Алишер Абдухалилович	
Baliqchilik xo'jaliklarini moliyalashtirish manbalari	444
Zoxidov Tohirjon Mirzfar o'g'li	
Предельные теоремы в системе массового обслуживания $m/g/1$ с полумарковским поступлением требований	449
Турсунов Гафур Таирович	
Klasterlar tarkibida tarmoqlararo klasterlarni tashkil etish masalalari.....	456
Sharipova Zulayho Abdirimovna	
Optimizing public expenditure management for sustainable development in uzbekistan.....	461
Muhammad Eid Balbaa	
Lagranjning ikkinchi tur tenglamalarini don quritish qurilmasi mexanizmida qo'llash.....	469
Sobirov Xolxo'ja Abbozovich	
Jahonda va o'zbekiston respublikasida yetishtirilgan don (sholi)ning quritishning usullari tahlili.....	476
Bekkulov Botirali Rahmonqulovich, Qayumov Umidjon Ahmadjonovich, Rahmonqulov Tursunboy Botirali O'g'li	
Деформация изгиба.....	482
Атабаев Камил, Хаджиева Салима Садиковна, Каюмов Умиджон Ахмаджонович	
Hududlarda sanoat sohasini iqtisodiyotda tutgan o'rni va o'ziga xos xususiyatlari	487
Turayev Farhod Samadovich	
Yashil iqtisodiyotning mintaqaviy barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati.....	497
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	



YASHIL IQTISODIYOTNING MINTAQAVIY BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

ORCID: 0009-0008-3565-537X

Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich

Buxoro muhandislik texnologiya instituti tayanch doktoranti



Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning mintaqaviy barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi va bu borada amalga oshirilayotgan amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, suv resurslarini boshqarish va o'rmonlashtirish kabi loyihalar natijasida iqtisodiy diversifikatsiya va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha erishilgan yutuqlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, mintaqaviy rivojlanish, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik barqarorlik, suv resurslarini boshqarish, yashil strategiya.

Abstract: This article analyzes the role and importance of the green economy in ensuring regional sustainable development. The article covers the strategy of the Republic of Uzbekistan for the transition to a green economy and the practices implemented in this regard. Achievements in ensuring economic diversification and environmental sustainability through projects such as renewable energy sources, water resource management, and afforestation are discussed.

Keywords: Green economy, regional development, sustainable development, renewable energy, environmental sustainability, water resources management, green strategy.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение зеленой экономики в обеспечении устойчивого развития региона. В статье представлена стратегия перехода к зеленой экономике Республики Узбекистан и практика, реализуемая в этом направлении. Обсуждаются достижения в области экономической диверсификации и экологической устойчивости в результате таких проектов, как возобновляемые источники энергии, управление водными ресурсами и лесонасаждение.

Ключевые слова: Зеленая экономика, региональное развитие, устойчивое развитие, возобновляемые источники энергии, экологическая устойчивость, управление водными ресурсами, зеленая стратегия.

KIRISH

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi butun dunyo bo'ylab mintaqaviy barqaror rivojlanishni shakllantirishda muhim omil sifatida paydo bo'ldi. Ushbu model iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik va kambag'allikni qisqartirishni ta'minlash bilan uyg'unlashtirishga intiladi. Resurslardan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya, yashil texnologiyalar va ekologik do'stona siyosatlarni

qo'llash orqali yashil iqtisodiyot atrof-muhit va ijtimoiy muammolarni hal qilishga yordam beradi, shu bilan birga kelajak avlodlarga yerning ekosistemalarini buzmasdan ehtiyojlarini qondirish imkonini yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyotning mintaqaviy barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi o'rni bo'yicha tadqiqotlar dunyo miqyosida tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Bu boradagi ilmiy adabiyotlar muhim nazariy va amaliy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda ham yashil iqtisodiyotga o'tish orqali mintaqaviy barqaror rivojlanishni ta'minlash yo'lida jiddiy qadamlar qo'yilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-sonli "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori mamlakatimizning ushbu yo'nalishda olib borayotgan siyosiy va iqtisodiy chora-tadbirlarini belgilab berdi. Ushbu strategiya asosida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, suv resurslarini samarali boshqarish va ekologik muvozanatni tiklash kabi muhim yo'nalishlarda ishlar amalga oshirilmoqda. [1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2021-yil 29-iyuldagi PQ-5202-sonli "Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2021-yil 18-maydagi 'Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida'gi maxsus rezolyutsiyasini amalga oshirish choralari to'g'risida"gi qarori Orolbo'yi mintaqasining ekologik ahvolini yaxshilash, bu hududda ekologik innovatsiyalarni joriy etish, yangi texnologiyalarni tatbiq etish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali barqaror rivojlanish jarayonlarini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. [2]

Joriy yilning 29-noyabr kuni Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida O'zbekiston Respublikasi Navoiy viloyati Karmana tumanida quvvati 300 MVt bo'lgan quyosh elektr stansiyasi va 75 MVtlik elektr energiyasini saqlash tizimlarini qurish loyihasi bo'yicha Investitsiya bitimi imzolandi. Loyihaning ishga tushirilishi "O'zbekiston – 2030" Strategiyasida qayta tiklanadigan energiya manbalarini 25 ming megavattga va mamlakat umumiy iste'molidagi ulushini 40 foizga yetkazish bo'yicha maqsadlarga erishish yo'lidagi navbatdagi katta qadam bo'ladi. [3]


Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha Dasturi ma'lumotlariga ko'ra, yashil iqtisodiyot "atrof-muhit xavfi va ekologik tanqislikni sezilarli darajada kamaytiradigan holda inson farovonligi va ijtimoiy adolatni yaxshilaydigan" iqtisodiyotdir. [4] Yashil iqtisodiyot — bu past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy inklyuziv iqtisodiyotdir. Yashil iqtisodiyotda davlat va xususiy investitsiyalar uglerod chiqindilari va ifloslanishni kamaytirish, energiya va resurslar samaradorligini oshirish hamda biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining yo'qolishining oldini olish orqali daromad va bandlikni oshirishga yordam beradi. [5]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyotning mintaqaviy barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi o'rnini baholash uchun sistematik yondashuv qo'llanildi. Ma'lumotlar to'plashda statistik tahlil, mavjud ilmiy adabiyotlar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlari tahlil qilindi. Tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil usullari uyg'unlashgan holda ishlatilib, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi va uning iqtisodiy, ekologik hamda ijtimoiy ta'sirlari o'rganildi. Shuningdek, mintaqaviy rivojlanishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar aniqlanib, ularning samaradorlik ko'rsatkichlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Global yashil iqtisodiyot hozirda 7,2 trillion dollarlik bozor kapitallashuviga ega bo'lib, so'nggi o'n yil ichida dunyo miqyosida "eng yaxshi ishlaydigan ikkinchi sanoat" sifatida joylashtirildi. So'nggi o'n yil ichida yashil iqtisodiyotning uzoq muddatli o'sishi kengroq qimmatli qog'ozlar bozorini ortda qoldirdi, yillik o'sish sur'ati (CAGR) 13,8% ni tashkil etdi (1-rasm [6]).



1-rasm. FTSE Russell Green Revenues ma'lumotlari 2024-yil aprel holatiga ko'ra. LSEG Free Float Capitalization ma'lumotlari 2024-yil aprel holatiga.

Yevropada yashil iqtisodiyot tamoyillarini qabul qilishda issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Yevropa Ittifoqining Yashil kelajak (Green Deal) dasturi 2050-yilga borib Yevropani birinchi iqlim neytral qit'a qilishni ko'zda tutgan. Bu dastur doirasida mintaqaviy farqlar Yevropa Ittifoqining Birlashtirish jamg'armasi va Yevropa Mintaqaviy Rivojlanish Jamg'armasi kabi moliyaviy mexanizmlar orqali barqaror loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali hal qilinmoqda. Germaniya yashil mintaqaviy rivojlanishda «Energiyavende» siyosatini qabul qilgan bo'lib, bu siyosat qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish va ko'mirni bosqichma-bosqich rad etishni nazarda tutadi. Ushbu siyosat nafaqat mintaqaviy iqtisodiy o'sishni ta'minlagan, balki ekologik foydalar keltirgan.

Osiyo mamlakatlari yashil iqtisodiyot strategiyalarini qo'llab-quvvatlab, mintaqaviy rivojlanishni rag'batlantirmoqda. Jumladan, Xitoy qayta tiklanuvchi energiya manbalariga, xususan, quyosh va shamol energiyasiga o'tish orqali sezilarli yutuqlarga erishdi. Xitoy 2000-yillardan boshlab qayta tiklanuvchi energiya sohasiga sarmoya kiritishni boshladi. Bugungi kunda Xitoy dunyoda eng katta quyosh energiyasini ishlab chiqaruvchi davlatdir. 2020-yilda Xitoyning quyosh energiyasi ishlab chiqarish quvvati 252,5 gigavattga yetgan bo'lib, bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichdir. Xitoy quyosh paneli ishlab chiqarish bo'yicha ham global yetakchi hisoblanadi. Mamlakat dunyoda eng katta shamol energiyasiga ega bo'lgan davlatlardan biri bo'lib, 2020-yilda 290 gigavatt dan ortiq shamol energiyasini ishlab chiqargan. Bu, o'z navbatida, ichki mintaqalarda yangi sanoatlar va ish o'rinlarini yaratishga olib keldi. Xitoyda quyosh va shamol energetikasi kabi barqaror energiya manbalariga sarmoya kiritgan kompaniyalarga imtiyozli kreditlar va soliq yengilliklari taklif qilinadi. Hindistonda esa yashil iqtisodiyot tashabbuslari barqaror qishloq xo'jaligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga qaratilgan bo'lib, Milliy Iqlim O'zgarishi Dasturi (NAPCC) orqali energiya samaradorligini oshirish va quyosh energiyasini rag'batlantirishga qishloq hududlariga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda ushbu sohaga jiddiy e'tibor qaratilib, tegishli qonunchilik bazasi yaratildi. "Yashil energiya" ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish bo'yicha yirik dasturlar ishga tushirildi, shuningdek, investorlar uchun jozibador muhit yaratildi. Bugungi kunga qadar sohaga 2,1 milliard AQSh dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilib, yana 13 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Deyarli barcha hududlarda zamonaviy quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilmoqda. Xususan, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida umumiy quvvati 1,6 gigavatt bo'lgan 9 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari o'rnatildi. Andijon, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida umumiy quvvati 183 megavatt bo'lgan oltita yirik va kichik

gidroelektr stansiyalari ishga tushirildi. Shuningdek, ijtimoiy soha obyektlari, korxonalar, tashkilotlar, tadbirkorlar va turar-joy binolariga umumiy quvvati 457 megavatt bo'lgan quyosh batareyalari o'rnatildi. Ushbu maqsadlar uchun banklar tomonidan 2 trillion so'mga yaqin mablag' ajratildi. Natijada qo'shimcha 5 milliard kilovatt-soat toza elektr energiyasi ishlab chiqarilib, 1,5 milliard kub metr gazni tejash imkoniyati yaratildi. [7]

Suv resurslaridan oqilona foydalanish qishloq xo'jaligi uchun muhim ahamiyatga ega. Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida suv tejovchi texnologiyalarning joriy etilishi natijasida sug'orish samaradorligi oshib, suvdan foydalanish miqdori 20-30% ga qisqardi. [8]

Orolbo'yi hududida amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi ekologik muvozanatni tiklashda muhim qadam bo'ldi. Har yili 200 milliondan ortiq ko'chat ekilib, biologik xilmaxillikni tiklash va iqlim o'zgarishi ta'sirlarini kamaytirishga erishilmoqda.

Yashil iqtisodiyot loyihalari yangi ish o'rinlarini yaratmoqda. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya va chiqindilarni qayta ishlash sohalarida yaratilgan ish o'rinlari mahalliy aholi bandligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, yashil iqtisodiyotga asoslangan tashabbuslar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida diversifikatsiyaga olib keldi. Ayniqsa, energetika va qishloq xo'jaligi sohalarida innovatsion texnologiyalar joriy etilib, atrof-muhit barqarorligi tiklanmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish orqali uglerod chiqindilari kamaytirilmoqda. Bu esa aholi turmush darajasini oshirishga, mahalliy aholi uchun barqaror daromad manbalarini yaratishga va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga yordam bermoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga asoslangan loyihalar mahalliy iqtisodiyotning barqarorligini oshirish bilan birga, iqlim o'zgarishi va ekologik muammolarni kamaytirishga imkon yaratadi. Ayniqsa, mintaqaviy rivojlanishda yashil texnologiyalarni qo'llash yangi ish o'rinlarini yaratish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni himoya qilishni ta'minlamoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Orol dengizi mintaqasida joylashgan bo'lib, hududda suv resurslaridan samarali foydalanish va ularni tejash texnologiyalarini joriy etish, qishloq xo'jaligida suvni samarali taqsimlashni ta'minlash, shuningdek, ekologik tiklanish va innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Samarqand viloyati quyosh energiyasi bilan boy hudud bo'lib, quyosh energetikasiga sarmoyalarni ko'paytirish, qishloq xo'jaligida ekobiologik mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish va ekologik toza mahsulotlar bozorini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biridir.

Farg'ona viloyatida esa sanoat sektorida yashil texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni ekologik toza usullar bilan qayta ishlash, zararli chiqindilarni kamaytirish hamda ko'p qavatli uy-joy qurilishida yashil qurilish va energiya samarali binolarni qurish uchun standartlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Andijon viloyati qishloq xo'jaligi sohasida yashil qishloq xo'jaligi texnologiyalarini qo'llash va ekobiologik mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga e'tibor qaratmoqda. Toshkent viloyatida esa urbanizatsiya yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotgani hisobga olinib, elektr transporti, ekologik avtobuslar va velosiped infratuzilmasini rivojlantirish, sanoatni ekologik jihatdan toza texnologiyalar bilan jihozlash hamda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish zarurdir.

Kelgusida yashil iqtisodiyotning yanada keng miqyosda joriy etilishi uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha investitsiyalarni kengaytirish, mahalliy ixtisoslashgan kadrlarni tayyorlash, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan xalqaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. President.uz
2. Lex.uz
3. <https://gov.uz/oz/>
4. UNEP, 2011, 16-bet.



5. Vishal Vishnu Ovhal, Prakash Shankar Kamble. "Conceptual Analysis of Green Economy" maqolasi, 2021-yil dekabr, 5-bet.
6. Sidhi Mittal. "Green economy ranks second best performing industry globally in past decade" <https://www.edie.net/>, 2024-yil.
7. L. Dai. "Investing in green economy 2024: Growing in a fractured landscape", 33-bet, London Stock Exchange Group (LSEG), 2024-yil.
8. <https://president.uz/>
9. <https://old.ecouz.uz/>
10. <https://commission.europa.eu/>
11. <https://eur-lex.europa.eu/>
12. <https://www.iea.org/>
13. <https://e360.yale.edu/>
14. <https://www.china-briefing.com/>
15. <https://en.wikipedia.org/>

Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**

